© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

MAHALLALARDA OILAVIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY VA IJTIMOIY SAMARADORLIGI

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Menejment fakulteti BBA-85 guruh talabasi
Ismatullayeva Muslima Ilxom qizi
ismatullayeva7muslima@gmail.com
Sodiqova Oydinoy Alisher qizi
oydinabdukarimova73@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezizda ijtimoiy iqtisodiy hayotning rivojlanishida mahallardagi oilaviy tadbirkorlikning o'rni tahlil qilinadi. Mahallalarda tashkil etilgan oilaviy tadbirkorlik, oilaviy daromad,yangi ish o'rinlarining yaratilishi va hududlardagi rivojlanish holatlari o'rtasidagi bog'liqlik ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari mahallalarda tadbirkorlik faoliyatini kengaytirishda yuzaga keladigan dolzarb muammolar, ta'sir qiluvchi omillar va ularni bartaraf qilish bo'yicha takliflar ko'rib o'tiladi.

Kalit so'zlar: oilaviy tadbirkorlik, mahalla, oilaviy daromad, bandlik, yangi ish o'rinlari, hududiy rivojlanish, tadbirkorlik, iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy samaradorlik.

Kirish. Hozirgi raqamlashgan davrga kelib O'zebkistonda aholi bandligini ta'minlash oilalardagi daromadlarni ko'paytirish aholi ehtiyojlarini qondirish yurtimizning har bir hududida iqtisodiy faollikni kuchaytirish mavzuligi dolzarblashmoqda. Bu dolzarb masalani hal qilishda e'tiborni kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratish samaraliroq bo'lishi mumkin. Chunki oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda tadbirkordan katta miqdordagi kapital resurs talab qilinmaydi, mavjud mehnat resurslari va mahalliy imkoniyatlardan oqilona foydalangan holda faoliyat yuritishga asoslangan Oilaviy tadbirkorlikning muhimi jihati mahalla darajasida istiqbollar bilan to;laqonli bog'liqligidir. Mahalla aholining mehnat resurslari, iste'mol talabi va tadbirkorlik tashabbuslari yig'ilgan hududiy birlik hisoblanadi. Unda mavjud rivojlanish nuqtalaridan oqilona foydalanish mahalladagi iqtisodiy faollikni osishiga stimul bo'ladi.

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat siyosati darajasida ko'rib O'zbekiston hukumati tomonidan to'llliq qo'llab quvvatlanmoqda. Jumladan Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-avgustdagi 504-son qarorida "mahallabay" ishlash tizimini joriy etildi. Shu bilan birgalikda oilaviy tadbirkorlikni kengaytirish, aholining doimiy daromad manbalarini ko'paytirish, ishsizlikni kamaytirish va mahallalarning "o'sish nuqtalari"ni aniqlash vazifalari belgilangan.Bundan tashqari tadbirkorlik bo'yicha o'qitish, moliyalashtirish, zarur bo'lgan asbob-uskunalar bilan va xomashyo bilan ta'minlash qo'shimchasiga mavjud bo'lgan mahsulotni sotish jarayonlarida ham ishlar olib borilldi. 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmon bilan tasdiqlangan "O'zbekiston — 2030" strategiyasida iqtisodiy o'sish, aholi farovonligini oshirish va tadbirkorlik faoliyati uchun imkoniyatlarni keng miqiyosda targ'ib qilindi. Shuning natijasida oilaviy tadbirkorlikni faqatgina yangi korxonalar tashkil etish jarayoni sifatida o'rganishdan biroz chekinildi. Balki **oilaviy daromad, bandlik va mahalliy iqtisodiy faollikni oshiruvchi mexanizm** sifatida o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Olib borilayotgan tadqiqotning maqsadiga ko'ra O'zbekiston mahallalarida oilaviy tadbirkorlikning rivojlanish holatini baholash deb belgilandi. Oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini aniqlash hamda mavjud muammolar asosida rivojlantirish bo'yicha takliflar ko'rib chiqishdan iborat.

Tadqiqotda statistik tahlil, dinamik qatorlarni tahlil qilish, taqqoslash, tarkibiy ulushlarni aniqlash, foiz hisob-kitoblari va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Axborot manbalari

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

sifatida O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining SIAT ma’lumotlari hamda normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanildi [1]. Kuzatilgan natijalar va tahlilga yuzlanadigan bo’lsak;

1. Oilaviy korxonalar sonining dinamikasi

Oilaviy tadbirkorlik rivojlanishining muhim ko‘rsatkichlaridan biri faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar sonidir. Rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2017-yilda 8 348 ta bo‘lgan oilaviy korxonalar soni 2023-yilda 59 110 taga yetgan. Keyingi yillarda esa ushbu ko‘rsatkich pasaygan.

1-jadval.

yil	Oilaviy korxonalar soni	O’zgarishi
2017	8348	-
2020	27512	-
2023	59110	+114,9%
2024	44935	-24,0%
2025	36265	-19,3%
2026	36158	-0,3%

O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni
2020–2023-yillar o‘zgarishi.[1]

2017–2023-yillarda oilaviy korxonalar soni 8 348 tadan 59 110 tagacha oshib, qariyb **7,1 baravar** ko‘paygan. Lekin 2023–2025-yillarda ko‘rsatkich 59 110 tadan 36 265 tagacha kamaygan. Bu **38,6 foizlik pasayish**ni bildiradi. Mazkur pasayishni oilaviy tadbirkorlikning yomonlashuvi sifatida baholash to‘g‘ri emas, chunki korxonalar statistikasi ro‘yxatdan o‘tish, faoliyatni to‘xtatish va boshqa demografik jarayonlarga ham bog‘liq. 2025-yil 1-iyul holatida mamlakatda 38 234 ta oilaviy korxona faoliyat yuritgani qayd etilgan. 2026-yil 1-iyun holatida esa 36 697 ta oilaviy korxona mavjud bo‘lib, ular tadbirkorlik subyektlarining 8,5 foizini tashkil etgan.

2. Oilaviy korxonalarning faoliyat turlari bo‘yicha tarkibi

Oilaviy tadbirkorlik samaradorligini baholashda korxonalar soni bilan birgalikda ularning faoliyat yo‘nalishlariga ham etibor qaratish muhimdir.

2-jadval.

Faoilyat turi	**Korxonalar soni**	**Ulushi, %**
Savdo	15264	39.9
Sanoat	8703	22,8
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	7303	19,1
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik	2649	6,9
Boshqa faoiliyat turlari	4315	11,3
Jami	38234	100,0

Jadvaldan ko‘rinadiki, oilaviy korxonalarning eng katta qismi — **39,9 foizi savdo** sohasiga to‘g‘ri keladi. Sanoat 22,8 foiz, yashash va ovqatlanish xizmatlari esa 19,1 foizni tashkil etadi [4]. Ushbu uchta yo‘nalishning jami ulushi:

39,9 + 22,8 + 19,1 = 81,8%.

Demak, oilaviy korxonalarning qariyb **82 foizi uchta asosiy faoliyat turida** jamlangan. Bir tomondan, bu sohalarning oilaviy biznes uchun qulayligini tasdiqlab beradi.Ikkinchi tomondan, faoliyat turlarini diversifikatsiya qilish zarurligini bildiradi. Ayniqsa, ishlab chiqarish, qayta ishlash,

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

raqamli xizmatlar va mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash kabi yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan yo‘nalishlarni kengaytirish maqsadga muvofiq.

3. Iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik

Oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy samaradorligi, avvalo, oilalar uchun daromad manbalarining kengayishi va mahalliy iqtisodiy faollikning oshishi bilan ifodalanadi. Oilaviy korxonada mahalliy xomashyo, mehnat va xizmatlardan foydalangani uchun yaratilgan daromadning ma’lum qismi hududning o‘zida qoladi.Biroq iqtisodiy samaradorlikni faqat korxonalar soni bilan baholash yetarli bo’lmaydi. Iqtisodiy samaradorlikni aniqroq baholash uchun korxonaning faoliyat davomiyligi, daromadi, foydaliligi, ishlab chiqarish yoki xizmat hajmi va yaratilgan ish o‘rinlari ham hisobga olinishi kerak. Ijtimoiy samaradorlik faktori esa bandlik va oilalar farovonligining o’zgarishida namoyon bo‘ladi. Oilaviy biznesda oila a’zolarining mehnatidan foydalanilishi ularning iqtisodiy faolligini oshiradi. Korxona kengaygan sari boshqa fuqarolar uchun ham ish o‘rinlari yaratilishi mumkin.Shu sababli oilaviy tadbirkorlikning samaradorligini quyidagicha ifodalash mumkin:

Iqtisodiy samaradorlik = daromad + foyda + ishlab chiqarish hajmi + biznes barqarorligi.

Ijtimoiy samaradorlik = bandlik + yangi ish o‘rinlari + daromad manbalarining ko‘payishi + oilalar farovonligi.

Tahlil natijasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda bir qator muammolar mavjudligi aniqlandi.

3-jadval.

Muammo	**Sabab**	**Oqibat**
Korxonalar sonining 2023-yildan keyingi pasayishi	Biznes barqarorligi va bozor sharoitlari bilan bog‘liq qiyinchiliklar	Korxonalarning faoliyatini to‘xtatishi
Savdo sohasining yuqori ulushi	Savdoga kirishning nisbatan osonligi	Faoliyatning yetarlicha diversifikatsiyalanmasligi
Marketing imkoniyatlarining cheklanganligi	Raqamli savdo va reklama ko‘nikmalarining yetarli emasligi	Sotuv bozorining torayishi
Moliyaviy resurslardan foydalanishdagi qiyinchiliklar	Kredit va moliyaviy savodxonlik bilan bog‘liq muammolar	Biznesni kengaytirish imkoniyatlarining cheklanishi
Biznes boshqaruvi ko‘nikmalarining yetishmasligi	Rejalashtirish va hisob-kitob bilimlarining cheklanganligi	Korxona barqarorligining pasayishi

Asosiy muammolar, sabablari va oqibatlari

Shunday qilib, asosiy muammo **miqdoriy o‘sishdan sifatli va barqaror o‘sishga o‘tish** bilan bog‘liq.

2017–2023-yillarda korxonalar sonining keskin ko‘payishi ijobiy natija bo‘lsa-da, 2023–2025-

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

yillardagi 38,6 foizlik pasayish ularning uzoq muddatli faoliyatini ta’minlashga e’tibor kuchaytirish zarurligini ko‘rsatdi.

Tadqiqot davomida aniqlangan muammolarni hisobga olgan holda quyidagi bir nechta takliflarni ilgari surish mumkin:

- Oilaviy tadbirkorlik samaradorligini baholashda korxonalar soni bilan bir qatorda **1 va 3 yil davomida faoliyatini saqlab qolgan korxonalar ulushi**ni ham asosiy ko‘rsatkich sifatida joriy etish.
- Har bir mahallaning xomashyo, mehnat resurslari, infratuzilma va bozor talabidan kelib chiqib, o‘ziga xos “o‘sish nuqtalari”ni belgilash.
- Savdo bilan birgalikda ishlab chiqarish, qayta ishlash, hunarmandchilik va raqamli xizmatlar kabi yuqori qo‘shilgan qiymatli yo‘nalishlarni rivojlantirish.
- Oilaviy tadbirkorlar uchun biznes-rejalashtirish, xarajat va foydani hisoblash, kredit yuklamasini baholash hamda marketing bo‘yicha amaliy o‘quvlarni mahalla darajasida tashkil etish.
- Mahallalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni elektron savdo va raqamli marketing orqali boshqa hududlar bozorlariga olib chiqish.
- Kredit ajratish bilan cheklanmasdan, kreditdan keyingi davrda tadbirkorlarga biznesni boshqarish, bozor topish va mahsulotni sotish bo‘yicha maslahat xizmatlarini ko‘rsatish.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari mahallalarda oilaviy tadbirkorlik aholi bandligi, oilaviy daromadlarni ko‘paytirish va mahalliy iqtisodiy faollikni oshirishning muhim mexanizmlaridan biri ekanligini ko‘rsatdi. Rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2017–2023-yillarda faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 8 348 tadan 59 110 tagacha oshgan. Shu bilan birga, 2023–2025-yillarda ko‘rsatkichning 38,6 foizga kamayishi biznesning barqarorligini ta’minlash masalasiga urg’u berish kerakligini qayd etdi.

2025-yil 1-iyul holatida 38 234 ta oilaviy korxonaning 39,9 foizi savdo, 22,8 foizi sanoat va 19,1 foizi yashash hamda ovqatlanish xizmatlari sohasida faoliyat yuritgan. Mazkur uchta yo‘nalishning jami 81,8 foizlik ulushi oilaviy biznesni diversifikatsiya qilish uchun imkoniyat mavjudligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda asosiy e’tibor korxonalar sonini ko‘paytirish bilan cheklanmasdan, ularning **barqarorligi, daromadliligi, yangi ish o‘rinlari yaratishi va mahalliy iqtisodiyotga qo‘shadigan hissini oshirishga** qaratilishi lozim. Buning uchun mahallalarning iqtisodiy salohiyatiga mos tadbirkorlik yo‘nalishlarini belgilash, moliyaviy va raqamli savodxonlikni oshirish, marketing imkoniyatlarini kengaytirish hamda tadbirkorlikni kreditdan oldingi va keyingi bosqichda ham qo‘llab-quvvatlash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. SIAT statistik ma’lumotlar bazasi: “Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-avgustdagi 504-son qarori. “Hududlarda ‘mahallabay’ ishlash asosida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining doimiy daromad manbalarini ko‘paytirish orqali kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida.
4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. “O‘zbekistonda oilaviy korxonalar soni oshib bormoqda”. 2025.
5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Korxona va tashkilotlar demografiyasi bo‘yicha statistik ma’lumotlar. 2026.